INTERNATIONAL JOURNAL OF SCIENTIFIC RESEARCHERS
ISSN: 3030-332X Impact factor: 9,493 Volume 17, issue 1, Aprel 2026
https://wordlyknowledge.uz/index.php/IJSR worldly knowledge
Index: google scholar, research gate, research bib, zenodo, open aire.
https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG
https://www.researchgate.net/profile/Worldly-Knowledge
https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3030-332X

CHORI AVAZ SHE'RIYATINING FONEIK-FONOLOGIK XUSUSIYATLARI

Amonova Mavluda Raximjon qizi
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Markaziy Osiyo xalqlari tillari va madaniyati instituti 2-bosqich magistranti

mavludaamonova1516@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada o‘zbek she’riyatining yorqin namoyondalaridan biri Chori Avaz she’rlari tahlilga tortiladi. Uning o‘z ijod namunalarida qo‘llagan ayrim fonetik-fonologik birliklar, ularning matnda ifodalayotgan emotsional-ekspressiv ma’nolari hamda o‘ziga xos xususiyatlari atroflicha tadqiq etiladi.

Kalit so‘zlar

alliteratsiya, assonans, geminatsiya, fonografik vositalar

Badiiy matnni tahlil qilish jarayonida fonetik birliklar vositasida yuzaga chiqayotgan estetik xususiyatlarga ham alohida e’tibor qaratish zarur. Ayniqsa, she’riy matnlarda nutq tovushlarining estetik imkoniyatlari yanada tez va qulay tarzda idrok etiladi. Chunki nazmda o‘ziga xos jozibador ohang bo‘ladi. Bunday ohang uyg‘unligiga tovushlarni uslubiy qo‘llash orqali erishiladi. She’riy asarlarda, asosan, alliteratsiya (undoshlar takrori), assonans (unlilar takrori), geminatsiya (undoshlarni qavatlash) singari fonetik usullardan samarali tarzda foydalanish kuzatiladi. Nasriy asarlarda esa tovush orttirish, tovush tushirish, unlilarni cho‘zish, undoshlarni qavatlash, tovushlarni takrorlash, so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilmaslik kabi fonetik usullar yordamida ekspressivlik oshiriladi.

Alliteratsiya (lot. “litera” so‘zidan olingan) she’riy nutqdagi har bir misrada bir xil undosh tovushlarning takror ishlatilishi, ya’ni nutqda tovushlarning mos kelishi.1 U takrorning bir ko‘rinishi bo‘lib, misralar, so‘zlar yoki bo‘g‘inlar boshida, oxirida bir xil undosh tovushlarning uyg‘un holda qo‘llanilishi natijasida asarda yuqori ohangdorlikni hosil qiladi. Sharq she’riyatida ushbu hodisa mumtoz adabiyotda “tavze” (ar. taqsim qilmoq, joylashtirmoq) san’ati deb yuritilgan.2 Shoir Chori Avaz she’rlarida alliteratsiya hodisasining to‘liq varianti ko‘p uchramasa-da, uning to‘liqsiz shaklini qo‘llash orqali muallif poetik ohanrabolik hamda voqealarning ta’sir kuchini oshirishga, dilga yaqinligi, emotsionalligi, musiqiyligini ta’minlashga erishadi. Faqatgina misralar boshida takrorlanuvchi alletratsiya hodisasiga quyidagi she’riy parchani misol qilib keltirishimiz mumkin:

__Q__iz bolishga tashlar boshini,
__Q__iz yosh to‘ka-to‘ka charchadi.
__Q__arg‘ay-__q__arg‘ay uyquga ketdi
Tunga sherik yurgan barchani.

Shoir misralar boshida “q” tovushi bilan boshlanuvchi so‘zlarni qo‘llash orqali she’rda musiqiylikni oshirishga erishgan. Bu hodisani yuzaga chiqarishda, asosan, takror so‘zlardan

1 Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. Toshkent: O‘qituvchi. 1985. – B.12.
2 Jahonov K. Mumtoz she'riyat latofati. Buxoro. – 2014.

foydalanganligini ko‘rishimiz mumkin. Bunday tovushlar takrorini qo‘llash o‘quvchi talaffuzida qulaylikni ham yuzaga chiqaradi.

Boshqa bir o‘rinda faqatgina bir misrada qo‘llanilgan so‘zlarning bosh harfi takrorlanishi natijasida to‘liqsiz alletratsiya hodisasining guvohi bo‘lamiz:

***B**ilamanki, **b**axtiyor **b**o‘lgum,*
Meni g‘amlar siylashadi bot.

Shoir she’riyatida bir necha undosh tovushlar ham alletratsiyani yuzaga keltirishda yonma-yon holatda qo‘llanilganligini ko‘rishimiz mumkin:

***S**alom! **S**ingilginam!*
***K**amgap, **k**amtarim!*

Shoir she’riyatida shu kabi misollarni ko‘plab keltirishimiz mumkin. Bunday tovushlardan unumli foydalanish oqibatida shoir talaffuz uyg‘unligi bilan birgalikda o‘quvchi diqqatini jalb qilish va unga emotsionallikni yetkazishni maqsad qilgan hamda bunga erishgan.

Assonans misralardagi bir-biriga yaqin unli tovushlar ng ohangdoshligi bo‘lib, “Tilshunoslik terminlari izohli lgu‘ati”da (frans.assonance-ohangdoshlik) “aynan yoki yaqin unlilarning takrorlanishi natijasida yuzaga keladigan ohangdoshlik”, deb beriladi. Chori Avaz ijodida ham bu hodisaning bir qator go‘zal namunalari mavjud.

*Bu sirli qudratga bo‘ldim guv**o**h men,*
*Tiriklik darsidan bo‘ldim og**o**h men,*
*Angladim kimda haq, kimda gun**o**h men.*
Haq qal’asi, xalq qal’asi yoriltosh.

Assonans qofiyadosh so‘zlar tarkibida kelib, she’riy nutqqa ko‘tarinki ruh va o‘ziga xos musiqiylik baxsh etadi. Keltirilgan misolda takrorlanib kelgan “o” tovushi fonetik xarakteriga ko‘ra orqa qator, quyi keng, lablangan unli. Mazkur xususiyatlariga ko‘ra talaffuzda biroz cho‘zib aytishga moyil tovush bo‘lib, misralar yakunidagi takrorlanuvchi so‘zdan oldin kelgan so‘zlarning urg‘uli bo‘g‘inida kelib, lirik qahramonning ruhiy holatini ifodalamoqda.

*Q**o**rli **o**qsh**o**m,*

***O**ppo**q** **o**lam,*

***O**ppo**q** qo‘shiq b**o**shlar tun.*

Ushbu misralar tarkibida takrorlanib kelayotgan “o” tovushi musiqiylikni oshirish bilan bir qatorda, o‘quvchi ongida qish tasvirini gavdalantirishga xizmat qilgan. Shoir she’rlarida assonans hodisasining boshqa ko‘plab namunalaridan ham keltirishimiz mumkin.

Geminatsiya – ikkita bir xil undoshning so‘z tarkibida qavatlanishi.3 “Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati”da bu hodisa “qo‘sh undoshlik – ikki aynan bir xil undoshli holatning yuzaga kelishi”, - deya izohlanadi.4 Umuman undoshlarni ikkilantirib qo‘llash orqali har qanday ijodkor ma’lum bir maqsadni ko‘zlaydi. Bu hodisa badiiy asarda qahramon ruhiyatidagi emotsionallikning ma’lum darajada ta’sir kuchini oshirib, hissiyotlarni tugal ta’svirlanishini ta’minlaydi. Shoir Chori Avaz ijodida ham geminatsiya hodisasini kuzatishimiz mumkin. Ammo shoir o‘z she’rlarida bu fonetik hodisaga boshqalariga nisbatan kamroq

3 Hojiyev A.Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati.Toshkent:O‘qituvchi. 1985. – B.143.
4 Hojiyev A. O‘sha asar. 143-b.

murojaat qiladi. Ijodkor qalamiga mansub “Saylanma”dan o‘rin olgan “Sendan-ku ko‘nglim to‘q” nomli she’rida shunday misralar keltiriladi.

*Nigohing **haqqini** axtarib,*

Yuragim qatini titaman.

“Gap topa olmasam” degan o‘y

Kelaru zaqqumlar yutaman.

Bu to‘rtlikda “haqqini” so‘zidagi “h” tovushining ikkilanishi natijasida aynan geminatsiya hodisasi yuz bermoqda. Shoir bunday fonetik hodisadan foydalanish natijasida yor nigohining haqini yuqori baholayotganini, hatto uni ado eta olmasligidan hadiksirab zaqqumlar yutayotganligini ta’sirli darajada ifodalashga erishgan.

Badiiy asar tilida muallif fonopoetik usullar, xususan, unli va undosh tovushlarni cho‘zish, qavatlash, takrorlash, hatto so‘zlarni noto‘g‘ri talaffuz qilish orqali ham ekspressivlikni ta’minlashga erishadi.

Nutq tovushlarining tabiati bilan qiziquvchi bir qator mutaxassislar ayrim tovushlar ma’lum ramzlarni ifodalovchi ekanligini qayd etishgan. Masalan, **u, d, r** tovushlari dahshatni yodga soluvchi, **m, n, i** tovushlari nazokat ifodasi, **i** tovushi xursandchilik ramzi sifatida ma’no bo‘yoqdorligiga ega ekanligi haqida o‘z mulohazalarini bildirishgan. Nutq tovushlarining yozma ifodasi bo‘lgan “harflarga bu tarzda ma’no yuklash, albatta, ilmiy asosga ega emas. Badiiy asarlarda ruhiy holatni yozuvda ifodalash o‘ziga xos murakkablikni yuzaga chiqaradi. Qahramonlar ruhiyatidagi ichki hayajon, xursand bo‘lish, xafagarchilik, rozilik, norozigarchilik, taajjub, yalinish, esankirash, ikkilanish, hayratga tushish, qochiriq, kinoya, piching, kesatiq, olqish, so‘roq, ta’kid, qoniqmaslik, norozilik, norizolik, tilak-istak, qo‘llash-quvvatlash kabi qator holatlarni aynan berishda yozuvchilar unli yoki undoshlarni birdan ortiq yozish usuli – fonografik vositalardan foydalanadilar”.5

Unli tovushlarni birdan ortiq yozish orqali ijodkor aytmoqchi bo‘lgan yoki aytayotgan fikr lirik qahramonning voqelikka bo‘lgan munosabati sifatida oydinlashtiriladi. Ilmiy adabiyotlarda bunday usul orqali belgining me’yordan ortiq yoki kuchsiz ekanligini ifodalashda foydalanilishi ta’kidlab o‘tiladi.

Xuddi shunday uslubiy ahamiyati yuqori bo‘lgan fonografik vositalardan Chori Avaz ijodida ham ko‘plab uchratishimiz mumkin.

Ji…….i…….m
Kurtaklarni to‘lg‘oq tutmoqda
Va osuda uchmoqda bir sas,
O‘zbekiston farzand kutmoqda,
Bu oddiy bir soniya emas.

Shoir “Tortilgan kamon” turkumidan olingan bu parchada tabiat bilan bog‘liq hodisani ifodalashda fonografik vositadan samarali foydalangan. Parchada “ji……i……m” so‘zidagi “i”

5 Мирзаев И. Абдулла Қаҳҳор ҳикоялари матни поэтикаси таҳлилига бағишланган янги тадқиқот ҳақида//Филология.10-чиқиш. Илмий мақолалар тўплами. – Самарқанд: СамДУ, 2010.

tovushining cho‘ziq holatda ifodalanishi natijasida fasllar almashinuvi jarayonida bahorning kelishiga nisbatan o‘quvchi diqqatini jalb etish maqsadi ko‘zda tutilgan va bu chaqiriq she’rning emotsional bo‘yoqdorligi sezilarli darajada oshirgan. “i” tovushining birdan ortiq ifodalanishi belgining me’yordan kuchsiz holatda ekanligiga ishora bo‘lib kelmoqda.

Shoir o‘z she’rlarida bunday hodisalarni yuzaga chiqarib, emotsionallikni oshirishda asosan unli tovushlarga murojaat qiladi. Quyida yana shunday tahlillarning bir qanchasini ko‘zdan kechiramiz.

Onamning so‘zlari bilan
aytganda -
Katta to‘yga ketgan,
bir kun keladi…
***Ko‘-o‘p** kutganman*
men o‘sha kunni.

Chori Avazning “Uyg‘onishdan o‘zga tole izlama” kitobidan o‘rin olgan “So‘qmoqda” nomli dostonidan keltirilgan yuqoridagi misralarda lirik qahramon kechinmalarini o‘quvchiga yetkazish maqsadida fonetik-fonologik vosita qo‘llanilgan. Lirik qahramon onasining ta’biri bilan aytganda “katta to‘yga ketgan” otasini uzoq muddat yo‘llariga intizor bo‘lib kutganligini birgina “ko‘-o‘p” so‘zida “o‘” tovushini cho‘zish orqali tasvirlamoqda va shu o‘rinda lirik qahramonning borliqqa bo‘lgan munosabati belgining me’yordan ortiqligi hamda davomiyligini ifodalab kelmoqda. Dostonda yana shunday misralar mavjud:

Ba’zi kun: tushdami
yoki kun qaytgach,
yarador dil bilan
uyga qaytardim.
Onamning nigohi
yetmas bir joyda
Tizzamni quchoqlab
***uzo-oq** o‘ylardim.*

Bu yerdaa ham “o” tovushi orqali fonografik vosita shakllantirilib, borliqqa nisbatan lirik qahramon kechinmalarida belgining davomiyligi va me’yordan ortiqligi yaqqol namoyon bo‘lmoqda va bu holat misralarning emotsionalligini oshirishga xizmat qilmoqda. Shoir qalamiga mansub “Manzara” she’rida ham qish faslining tashrifi tufayli lirik qahramonni oldinda kutayotgan tunlarning davomiyligi biroz tashvishga solmoqda.

Havo nayzasini sanchmoqqa moyil,
Qunishib, kichrayib bormoqda quyosh.
Oldinda bir-biridan qisqa kunlar-u
*Bir-biridan **uzu-un** tunlar devori.*
Shuncha ko‘rgiliklar yetmaganiday,
Farmon bitar
O‘z baxtini o‘ylab
Imperator qish.

“Ro‘shnolik” she’ridan olingan quyidagi parchada fonologik hodisa undosh tovushining cho‘ziq ifodalanishi natijasida yuzaga kelganligini ko‘rishimiz mumkin. Aslida orfoepik me’yorda bir undosh yozilishi va talaffuz qilinishi kerak bo‘lgan so‘zlar ma’lum vaziyatlarda

ekspressiv va estetik maqsad talabi bilan atayin qavatlab yoziladi yoki talaffuz qilinadi. So‘zlovchining ichki kechinmalari (siqilish, ichikish, xursandlik, ko‘ngil to‘lishi kabilar) va maqsadini kitobxonga “aynan” yetkazish uchun ijodkorlar badiiy matnda bu holatni undosh tovushlarni birdan ortiq yozish orqali ifodalashga harakat qiladilar. Bunda belgining me’yordan ortiqligi, harakatning davomiyligi yoki oniyligi (bir onda ro‘y berganligi), takroriyligi, tovush kuchining balandligi yoki pastligi kabi ma’nolar ifodalash ko‘zda tutiladi.

Bas….s!
Hech bir narsa kerakmas, gulim,
Orzularga uzoq aldandim, yetar.
Men ishq - osmon, deb adashdim,
Men ishq - oson, deb adashdim.
Yurak but - omon, deb adashdim.

Ko‘rinib turganidek lirik qahramon yanglish his-tuyg‘ularga berilganligi va bu holat anglashilishgacha uzoq muddat davomiy bo‘lganligi ifodalanmoqda. Ammo endi davomiylikni oniyda hal qilish maqsadida “bas…s” so‘zidagi “s” undoshini birdan ortiq ifodalashning o‘zi kifoya qilmoqda. Natijada shoir qahramon kechinmalarida endi “chegara” mavjudligini kitobxonga yetkazish maqsadiga erishgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, Chori Avaz ijod na’munalarini qanchalik ko‘p tahlilga tortaversak, uning ochilmagan qirralari bizni shunchalik o‘ziga jalb qilaveradi. Shoir o‘z she’rlarida emotsional bo‘yoqdorlikni oshirish maqsadida tilimizning bor imkoniyatlaridan samarali foydalanganligini guvohi bo‘laveramiz. Ayniqsa ijodkor badiiy nutqining xalqchilligi uning ijod namunalari qiymatini oshirishda nihoyatda katta ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. Toshkent: O‘qituvchi. 1985. – B.12.
2. Jahonov K. Mumtoz she'riyat latofati. Buxoro. – 2014.
3. Йўлдошев М. Бадиий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили асослари.–
4. Тошкент: Фан, 2006.
5. Мирзаев И. Абдулла Қаҳҳор ҳикоялари матни поэтикаси таҳлилига бағишланган янги тадқиқот ҳақида//Филология.10-чиқиш. Илмий мақолалар тўплами. – Самарқанд: СамДУ, 2010.
6. Чори Аваз. Сайланма. - Тошкент: Маънавият, 2003.
7. www.ziyouz.com
8. www.kh-davron.uz